



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



37	Ruxshona XASANBOYEVA, Xorazm xalfachilik san'ati: tarixiy ildizlari, ijro an'analari va zamonaviy talqini	621
38	Munisa ABDULLAYEVA, Bolalar folklori va poetikasi	624
39	Tursımay JORABAEVA, Fitrat pen Axmet Baytırsınıyly shıyg'armalarındag'ı ruhani yndestik pen ag'artushılyq ideyalar	629
40	O'g'ıloy G'ANIYEVA, O'zbek va turk maqollarida badiiy tasvir vositalari	631
41	Umida ABDUXALIQOVA, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida bola obrazi	634
42	Farangiz ESHMO'MINOVA, O'zbek bolalar folklorining o'rganilishi	636
43	Shaxlo MINGNOROVA, Shonazar Shoabdurahmonovning folklorshunoslik faoliyati	638
44	Gulsanam SHOKIROVA (XOLMIRZAYEVA), Uychi shevasi leksikasidan	640
45	Sarvinov XUDOYBERDIYEVA, Norin shevasining ayrim fonetik xususiyatlari	643
46	Manzura MASTONOVA, O'zbek xalq ertaklari va qozoq xalq ertaklarida umuminsoniy qadriyatlar	647
47	Xayrullo ASHUROV, Kulguda aks etgan haqiqat: o'zbek folklorida satira va yumorning ijtimoiy-estetik vazifasi	650
48	Sevinch QURBONNAZAROVA, Xorazm shevasida ko'rsatish olmoshlarining funksional-semantik xususiyatlari	649
49	Sevinch OSTONOVA, Allaning turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o'rni	656
50	Xayriniso ESHMURATOVA, O'zbek shevalarida kiyim nomlari	659
51	Dinora ABIRQULOVA, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida qahramonning safarga chiqish jarayoni tahlili	664
52	Munisa ESHMATOVA, Tohir Malikning "Murdalar gapirmaydilar" qissasida yetimlik muammosi ma'naviy tanazzul sifatida	669
53	Munira JUMANIYOZOVA, Xorazm viloyati hazorasp tumani shevasida kelishik kategoriyasining qo'llanishi	677
54	Ohista RAHIMQULOVA, G'ani Jahongirov va bolalar o'yin folklori	680
55	Durdona ZOKIROVA Marosim folklorining bugungi kundagi ahamiyati va zamonaviylik xususiyati	684
56	Marjona ABDUMAJITOVA Toshkent viloyati shevalarini leksik jihatdan bazi tahlili	686
57	Nigora MENGLIYEVA, O'zbek va turk tillarida 771omatic iboralarning o'rganilish darajasi	689
58	Marjona HAZRATQULOVA, Qorako'l shevasining tasniflardagi o'rni	694
59	Sabrina MUBINOVA, Buxoro shahar o'zbek-tojik shevalarini o'rganilishi	700

KULGUDA AKS ETGAN HAQIQAT: O'ZBEK FOLKLORIDA SATIRA VA
YUMORNING IJTIMOIIY-ESTETIK VAZIFASI

TRUTH REFLECTED IN LAUGHTER: THE SOCIAL AND AESTHETIC FUNCTIONS
OF SATIRE AND HUMOR IN UZBEK FOLKLORE

Xayrullo ASHUROV,

Andijon davlat universiteti talabasi

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MHLW8895

Annotation. *This article analyzes the artistic-aesthetic and socio-critical functions of laughter, satire, and humor in Uzbek oral folklore. In folk literature, laughter is not merely a means of entertainment; it serves as a powerful tool for exposing social vices, revealing flaws in human character, and expressing the life experience and worldview of the people. The study examines the factors contributing to the emergence of laughter in various folklore genres, including anecdotes, askiya (traditional witty verbal contests), satirical tales, proverbs, and other forms of folk creativity, highlighting their satirical and humorous features. Particular attention is paid to the figure of Khoja Nasreddin Afandi, who is interpreted as a symbol of popular wisdom, wit, eloquence, and a critical attitude toward social injustice. Furthermore, the educational, critical, and aesthetic functions of laughter are explored through the analysis of satirical folk tales such as The Magic Club (Ur To'qmoq), The Two Stubborn Men, The Deaf Man, The Two Fools, and The Seven Fools. The article concludes that laughter in folklore represents a distinctive means by which people express truth indirectly through artistic irony, satire, humor, and figurative language.*

Key words: oral folk literature, folklore, laughter, satire, humor, anecdote, askiya, Khoja Nasreddin Afandi, satirical tale, social criticism, folk wisdom.

Kirish. Insoniyat tarixida kulgi faqat ko'ngilxushlik vositasi bo'lib qolmagan. U odamlarning hayotga munosabati, jamiyatdagi ziddiyatlarni anglash usuli, ijtimoiy haqiqatni ifodalash shakli sifatida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodida kulgi xalqning ko'p asrlik tajribasi, kuzatuvchanligi, tanqidiy tafakkuri va badiiy mahoratini o'zida mujassamlashtiradi. Xalq o'z hayotida uchraydigan adolatsizlik, nodonlik, ochko'zlik, ikkiyuzlamachilik, poraxo'rlik, yalqovlik, kaltafahmlik kabi illatlarni ko'pincha ochiq nasihat yo'li bilan emas, balki kulgi, kinoya, hazil va hajv orqali fosh etgan.

O'zbek xalq og'zaki ijodida satira va yumor turli janrlar tarkibida namoyon bo'ladi. Latifalar, askiyalar, hajviy ertaklar, maqollar, qo'shiqlar, laparlar, yallalar va o'lanlarda kulgining turli ko'rinishlari uchraydi. Bu janrlarda kulgi bir tomondan insonni zavqlantirsa, ikkinchi tomondan uni o'ylashga, o'z xatti-harakatini baholashga, jamiyatdagi nuqsonlarga tanqidiy qarashga undaydi. Shu jihatdan folklordagi kulgi xalqning estetik didi va ijtimoiy ongini ifodalovchi muhim hodisadir.

Maqolaning asosiy maqsadi o'zbek folklorida satira va yumorning ijtimoiy haqiqatni ochishdagi vazifasini tahlil qilishdan iborat. Bunda latifa, Xo'ja Nasriddin Afandi obrazi va hajviy ertaklar asosiy tahlil obyekti sifatida olinadi. Chunki aynan shu janr va obrazlarda xalq kulgisi eng yorqin, eng ta'sirchan va eng keskin shaklda namoyon bo'ladi.

Asosiy qism. Kulgi xalq og'zaki ijodida tasodifiy hodisa emas. U xalqning hayotiy kuzatuvlari, ijtimoiy tajribasi va badiiy tafakkuri natijasida yuzaga keladi. Odamlar hayotdagi voqealarni faqat jiddiy qabul qilmaydi; ular voqelikdagi nomutanosiblik, adolatsizlik yoki kulgili holatlarni hazil, kinoya, piching va hajv orqali ifodalaydi. Shuning uchun ham kulgi xalq ijodida tabiiy va zaruriy badiiy vositaga aylangan.

O'zbek xalqining og'zaki ijodida so'z o'yini, qochirim, piching, kinoya va topqirlik alohida ahamiyatga ega. Askia san'ati, latifalar va Afandi haqidagi hikoyatlar xalqning so'zga

chechanligi, hozirjavoblighi va nozik didini ko'rsatadi. Bunday kulgi oddiy kuldirish uchun emas, balki kishining aqli, fahmi, nutqiy mahorati va ijtimoiy sezgiriligini sinash uchun ham xizmat qiladi.

Yumor va satira kulgining ikki muhim shaklidir. Yumor, odatda, yengil kulgi, xayrixoh munosabat va hazil ohangi bilan ajralib turadi. Unda tanqid bor, lekin bu tanqid keskin emas, ko'proq tarbiyaviy va yumshoq shaklda ifodalanadi. Satira esa ancha keskinroq hodisadir. Unda jamiyatdagi yoki inson xarakteridagi jiddiy nuqsonlar achchiq kulgi orqali fosh etiladi. Satira illat bilan murosqa qilmaydi; u uni ochadi, masxara qiladi va inkor etadi. Shu sababli satirik kulgi ko'pincha ijtimoiy tanqid vazifasini bajaradi.

Folklor matnlarida bu ikki hodisa ko'pincha bir-biri bilan aralash holda keladi. Ayrim latifalarda yumor kuchli bo'lsa, ayrimlarida satira ustun turadi. Hajviy ertaklarda ham ba'zan yengil kulgi, ba'zan esa achchiq tanqid yetakchi bo'ladi. Muhimi shundaki, har ikki holatda ham kulgi haqiqatni ochishga xizmat qiladi.

O'zbek folklorida kulgining eng yorqin ko'rinishlaridan biri latifalardir. Latifalar qisqa, lo'nda, hajman ixcham bo'lsa-da, ularda chuqur hayotiy ma'no, o'tkir kuzatuv va xalqona donolik mujassam bo'ladi. Latifa ko'pincha kutilmagan yechimga asoslanadi. Voqea oddiy boshlanadi, lekin yakunda topqir javob, kinoyali burilish yoki kulgili vaziyat orqali asosiy ma'no ochiladi.

Latifalarning markazida ko'pincha Xo'ja Nasriddin Afandi obrazi turadi. Afandi xalqning o'zi yaratgan, xalqning aqli va ruhiyatini ifodalovchi obrazdir. U qog'ozdagi qahramon emas, avvalo og'zaki ijod mahsulidir. Afandi xalq orasida yashaydi, xalq nomidan gapiradi, xalq dardini kulgi orqali aytadi. Uning nutqida hazil ham, haqiqat ham, kinoya ham, tanqid ham mujassam.

Afandi obrazining kuchi shundaki, u oddiy odam qiyofasida murakkab haqiqatlarni ayta oladi. U amaldorlarning ochko'zligini, boylarning xasisligini, nodonlarning kaltafahmliyini, ikkiyuzlamachilarning soxtaligini fosh etadi. Biroq buni quruq nasihat yoki ochiq ayblov orqali emas, balki kulgi, so'z o'yini va topqirlik vositasida amalga oshiradi. Shu jihatdan Afandi obrazi satirik tafakkurning xalqona timsolidir.

Afandi latifalarida ko'pincha ziddiyatli vaziyat yaratiladi. Bir tomonda kuch, mansab, boylik yoki zo'ravonlik tursa, ikkinchi tomonda oddiy xalq vakilining aqli, topqirligi va so'z mahorati turadi. Natijada tashqi jihatdan zaif ko'ringan qahramon aql bilan g'alaba qiladi. Bu esa xalqning adolat haqidagi orzusini ifodalaydi. Afandi kulgisi shunchaki kulgi emas; u xalqning ijtimoiy noroziligi, adolatga intilishi va haqiqatni aytish ehtiyojining badiiy shaklidir.

O'zbek xalq og'zaki ijodida hajviy ertaklar ham satira va yumorning muhim manbalaridan biridir. Belinskiy hajviy ertaklarning alohida ahamiyatga ega ekanini ta'kidlagan edi [Белинский В. Г., 1964: 553]. Bunday ertaklarda kulgi orqali inson xarakteridagi nuqsonlar ochib beriladi. Ertaklarda ahmoqlik, yalqovlik, ochko'zlik, o'jarlik, ezmalik, no'noqlik kabi sifatlar kulgili vaziyatlar orqali fosh qilinadi.

"Ur to'qmoq" ertagida ochko'zlik va adolatsizlik kulgi orqali tanqid qilinadi. Bu ertakda sehrli predmetlar vositasida insonning nafsga berilishi, birovning haqqiga ko'z olaytirishi va oxir-oqibat jazoga duchor bo'lishi ko'rsatiladi. Ertakdagi kulgi faqat qahqaha uyg'otish uchun emas, balki ochko'zlikning oqibatini ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Demak, bu yerda kulgi tarbiyaviy vazifa bajaradi.

"Ikki o'jar" ertagida esa o'jarlik insonni kulgili va nochor holatga olib keluvchi illat sifatida tasvirlanadi. O'jarlik hayotiy muammoni hal qilmaydi, aksincha, uni murakkablashtiradi. Ertakdagi kulgi o'quvchini yoki tinglovchini o'z fe'l-atvoriga tanqidiy qarashga undaydi. Bunday ertaklar orqali xalq insonni me'yor, aql, murosqa va fahm bilan yashashga chaqiradi.

"Garang", "Ikki ahmoq", "Yetti ahmoq" kabi ertaklarda esa kaltafahmlik va nodonlik hajv qilinadi. Bu ertaklarda obrazlar ko'pincha haddan tashqari sodda, tushunarsiz, mantiqsiz xatti-harakatlari bilan kulgi uyg'otadi. Ammo bu kulgining zamirida jiddiy ma'no bor: aqlsiz harakat, hayotni to'g'ri anglamaslik, voqelikni noto'g'ri baholash insonni kulgili vaziyatga solib qo'yadi. Xalq bunday obrazlar orqali fahm-farosat, hushyorlik va hayotiy tajribaning zarurligini uqtiradi.

Hajviy ertaklarda qahramonlar nutqi ham muhim ahamiyatga ega. Ularning so‘zlash tarzi, sodda yoki qochirimli iboralari, noo‘rin javoblari kulgining ta’sir kuchini oshiradi. Demak, hajviy ertaklarda kulgi faqat voqea orqali emas, balki til, nutq, dialog va obraz yaratish usuli orqali ham yuzaga keladi. Shu jihatdan bunday ertaklar xalq tilining boyligi, tasviriy imkoniyatlari va obrazli tafakkurini namoyon etadi.

Folklordagi kulgi ikki asosiy vazifani bajaradi: ijtimoiy-tanqidiy va estetik-tarbiyaviy. Ijtimoiy-tanqidiy vazifa shundan iboratki, kulgi orqali jamiyatdagi illatlar fosh etiladi. Amaldorlarning poraxo‘rligi, boylarning xasisligi, nodonlarning kaltafahmliigi, odamlarning yalqovligi yoki ikkiyuzlamachiligi kulgi vositasida ochiladi. Bunday kulgi xalqning haqiqatga bo‘lgan munosabatini bildiradi.

Estetik-tarbiyaviy vazifa esa kulgining badiiy zavq uyg‘otishi va insonni tarbiyalashi bilan bog‘liq. Xalq ertak, latifa yoki askiyani tinglar ekan, bir tomondan kuladi, ikkinchi tomondan muayyan xulosa chiqaradi. Kulgi orqali aytilgan haqiqat ko‘pincha oddiy nasihatdan ko‘ra ta’sirliroq bo‘ladi. Chunki kulgi insonning ongiga yengilroq kiradi, ammo undagi ma’no uzoqroq saqlanadi.

O‘zbek folklorida kulgi xalqning hayotga faol munosabatini ko‘rsatadi. Xalq voqelikdagi kamchiliklarni ko‘radi, ularni baholaydi va badiiy shaklda ifodalaydi. Shu sababli folklordagi kulgi passiv kuzatuv emas, balki ijtimoiy fikr bildirish shaklidir. Aynan mana shu jihati bilan u adabiyotdagi satira va yumorning shakllanishiga ham zamin yaratgan.

Keyingi davr yozma adabiyotida hajv, satira va yumorning rivojlanishida folklor an‘analari muhim rol o‘ynagan. Chunki yozma adabiyot xalq kulgisi, latifa, askiya, hajviy ertak va maqollardan katta badiiy tajriba olgan. Bu tajriba obraz yaratish, nutqiy kulgi hosil qilish, ijtimoiy illatni fosh etish va kinoyaviy ifoda usullarida yaqqol ko‘rinadi.

Xulosa. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida kulgi xalq tafakkurining muhim ko‘rinishlaridan biridir. U oddiy hazil yoki ko‘ngilochar vosita sifatida emas, balki haqiqatni ochuvchi, ijtimoiy illatlarni fosh etuvchi, insonni tarbiyalovchi badiiy-estetik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Latifalar, Afandi haqidagi hikoyatlar, askiya va hajviy ertaklarda kulgi xalqning hayotiy tajribasi, kuzatuvchanligi va tanqidiy munosabatini ifodalaydi.

Xo‘ja Nasriddin Afandi obrazi xalq donoligi va satirik tafakkurining yorqin timsolidir. U orqali xalq mansabparastlik, ochko‘zlik, nodonlik va adolatsizlikni kulgi vositasida tanqid qiladi. Hajviy ertaklarda esa inson xarakteridagi salbiy sifatlar kulgili vaziyatlar, obrazlar nutqi va voqealar rivoji orqali fosh etiladi. “Ur to‘qmoq”, “Ikki o‘jar”, “Garang”, “Ikki ahmoq”, “Yetti ahmoq” kabi ertaklar shuni ko‘rsatadiki, xalq kulgisi har doim ma’lum bir tarbiyaviy va tanqidiy maqsadga xizmat qilgan.

Demak, folklordagi kulgi – xalqning haqiqatni aytish usuli. U ba‘zan yengil yumor, ba‘zan achchiq satira, ba‘zan kinoya va piching shaklida namoyon bo‘ladi. Ammo har qanday holatda ham uning tub mohiyatida hayotni anglash, yomonlikni fosh etish, yaxshilikni ulug‘lash va insonni ma’naviy jihatdan tarbiyalash maqsadi yotadi. Shu bois o‘zbek folkloridagi satira va yumor nafaqat xalq og‘zaki ijodining muhim badiiy unsuri, balki milliy tafakkur va ijtimoiy ongning ham yorqin ifodasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Imomov K. O‘zbek xalq ertaklari. O‘zbek xalq ijodi bo‘yicha tadqiqotlar: O‘zbek folklorining epik janrlari. 7-kitob, 62–97-betlar. 1981.
2. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. O‘qituvchi. 1990.
3. Sarimsoqov B. Epik janrlar diffuziyasi. O‘zbek folklorining epik janrlari. Fan. 1981.
4. Белинский В. Г. Избранные сочинения (Т. 2). Художественная литература. 1964.